



**YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING  
AHAMIYATI**

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 58 – maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi  
Nargiza Murtozayeva.

**Аннотация**

Adabiyot va ona tili ta’lim jarayonining qaysi bosqichida bo’lishidan qat’iy nazar, o’quvchilarning mustaqil faoliyatiga yo’naltirish asosida tashkil etishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs - munozara”, “Boshqotirma”, “Aqliy hujum” kabi qator usullarni qo’llab, yaxshi natijani berishini o’z o’qituvchilik faoliyatimda sinadim.

Adabiyot fani o’quvchilarning mustaqil fikrlashini, hayot haqidagi fikrlarini, dunyoqarashini o’stiradi. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo’llash ta’lim sifatini sifatini yanada oshiradi. Adabiyot darslarida mushoiralar, g’azalxonlik, ma’ruzalar va ularning himoyasi darslari tashkil etish maqsadga muvofiqlikdir.

Ma’ruza darslarida mavzuga doir asosiy tushunchalarni o’quvchilarga to’laqonli darajaga etkazish va badiiy asarlardan keltirilgan namunalar bilan boyitish maqsadga muvofiq. O’quvchilar egallagan bilim va ko’nikmalarini nazorat qilish samaradorligini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: aqliy hujum, klaster, yangi pedtexnologiya.



Bugungi kunda mamlakatimizda, boshqa sohalarda bo'lgani kabi, ta'limga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi, zamon talablarga javob beradigan, zamonaviy texnika – taxnologiyalar bilan jihozlangan maktab, litsey va kollejlar yoshlar ixtiyorida. Shunday ekan, bugun o'qituvchi izlanuvchan, bilimdon va o'z ustida tinimsiz ishlaydigan bo'lmasa, "yaxshi" o'qituvchi sanalmaydi. Bugungi kun o'quvchisi internet orqali istalgan ma'lumotni bila oladi. Demak, o'qituvchilar har bir darsga alohida, puxta tayyorlangan holda kelishlari shart. Bu borada yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili va adabiyot darslarida "Aqliy hujum" metodidan foydalanish ysxshi natija beradi. Masalan, adabiyot darsida O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodini o'rganishda, bu metoddan unumli foydalanish mumkin:


- 1.O'.Hoshimov she'rlar mashq qila boshlaganda taxminan necha yoshda edi?
- 2."Sof, samimiyl, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladigan" asar yozgani bilan O'. Hoshimovni kim tabriklaydi va bu tabrik adib hayotida qanday ahamiyat kasb etadi?
- 3.O'. Hoshimovning qissalarini sanang.
4. O'. Hoshimovning qanday romanlarini bilasiz?
- 5.O'.Hoshimov dramalari asosida suratga olingan spektakllarni tomosha qilganmisiz,agar ko'rjan bo'lsangiz ular haqidagi fikringiz qanday?
- 6."Dunyoning ishlari" qissasidagi "Ona" obrazni haqida gapiring.O'zingizning onangiz haqida-chi?
7. "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Oltin baldoq" hikoyasini o'rgandik. Nima uchun onasi tilla sirg'asini qo'shnining keliniga taqib qo'yadi? Sirg'ani topib olgach, uni qo'shniga olib chiqib, kechirim so'rasa ham bo'lardi-ku!
8. "Qarz" hikoyasidagi Hakima aya haqida nimalar deya olasiz?
- 9.Qaysi buyuk adib O'tkir Hoshimovningilk qissasiga yuksak baho berdi?



Yoki ona tili darsida “Fe'l zamonlari” mavzusini o'rganishda ham bu metoddan foydalanish o'quvchilarni sergaklanadiradi, ularni izlanishga majbur qiladi.Qoidalar qayta eslanadi, bilimlar mustahkamlanadi, eng asosiysi, o'quvchi mustaqil fikrlaydi, og'zaki nutqi rivojlanadi.

- 1.Fe'l qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- 2.Fe'l qanday ma'nolarni ifodalaydi? Fikringizni misollar bilan dalillang.
- 3.Fe'lning bo'lishsiz shakli qaysi qo'shimcha bilan ifodenanadi?
4. Fe'lning bo'lishsiz shakliga misollar keltiring.
- 5.Fe'l zamonlari deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
- 6.Zamon qo'shimchalari deb qanday qo'shimchalarga aytiladi?
- 7.Fe'lda nechta zamon bor, qaysilar?
- 8.bildi so'zini har uch zamonda tuslang.
- 9.Qaysi so'z turkumi tuslanadi, qaysi so'z turkumi turlanadi?
- 10.Turlanish nima, tuslanish – chi? Bu kabi savollar ham oson, ham o'quvchini hushyor qiladi. O'quvchi qaysi savol o'ziga to'g'ri kelishini bilmaganligi sababli o'rtoqlari oldida uyalib qolmasligi uchuin har bir mavzuni o'zlashtiradi va darslarni o'zlashtirib boradi. Bu esa ham o'qituvchining , ham o'quvchining yutug'idir.

O'quvchilar bilimini oshirishda, ularni mavzu bilan mukammal tanishtirishda “Klaster” usuli ham katta rol o'ynaydi.”Fe'l” mavzusini yoritishda quyidagicha klaster tayyorlash mumkin:



O'quvchilarga doira ichidagi har bir tushuncha haqida ma'lumot beriladi. Oddiy qoidadan ko'ra bu ma'lumotlar ularning yodida tezroq qoladi. Chunki o'quvchilar har bir doirani o'zlari to'ldiradilar : qoidasi, qo'shimchalari, misollar. Bu ularning mavzuni o'zlashtirishlarini osonlashtiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar darsni o'qituvchi emas, balki, o'quvchi faolligi doirasida bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lmos'i, siyosiy va iqtisodiy bilimlarga ham ega bo'lmos'i lozim. Va bu bilimlarni o'quvchilar bilan baham ko'rishi kerak.

Mavzuni tushuntirishda iloji boricha takrordan qochish, yangi, darslikdan tashqari ma'lumotlardan ham foydalanish zarur. O'quvchilar uchun darslikdagi ma'lumotlar emas, darslikdan tashqari ma'lumotlar qiziqarli. O'quvchilarga qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar (matematik, biolog, shifokor, muhandis, diplomat yoki boshqa kasb), eng avvalo, ona



tiny mukammal bilishlari zarurligini; dunyoni teran anglash, dunyoqarashni kengaytirish, tilni burro qilish uchun, avvalo, badiiy adabiyotga oshno bo'lish lozimligini uqtirish lozim. Sababi o'z ona tilini mukammal bilmay turib, boshqa tilni o'rganish qiyin. Buning uchun o'qituvchining o'zi bilimli bo'lishi kerak. Zero, inson o'zida yo'q narsani birovga berolmaydi.

Darsda qanday metod qo'llamaylik, qanday yangilik olib kirmaylik, maqsad bitta: o'quvchilarimizning bilimli, dunyoqarashi keng va intiluvchan qilib yetishtirishdir.

Foydalanimgan adabiyotlar:

- 1."Ona tili" 5 – sınıf darslik.N.Mahmudov va boshqalar.
- 2.O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari". Qissalar.Toshkent.
- 3."Adabiyot" 5 – sınıf darslik.B.Qosimov va boshqalar.

